

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH USTUVOR MASALALARI

Aliiev Yashnarjon Egamberdievich

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrası,
E-mail: ya.aliyev@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada, dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi dolzarb masalaga aylanib borayotgan ayni paytda, mamlakatimiz agrar tarmog'ida faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan munosabatlarni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori, ichki bozor, tashqi bozor, agrosurslar bozori, agroxizmatlar bozori, intellektual mulk bozori, makroiqtisodiy muvozanat.

Аннотация

В данной статье освещаются вопросы совершенствования механизмов, способствующих обеспечению макроэкономической стабильности на рынке сельскохозяйственной продукции, функционирующем в аграрном секторе нашей страны, в условиях, когда продовольственная безопасность становится актуальной мировой проблемой.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, рынок сельскохозяйственной продукции, внутренний рынок, внешний рынок, рынок агресурсов, рынок агросервисов, рынок интеллектуальной собственности, макроэкономическое равновесие.

Abstract

This article highlights the issues of improving the mechanisms that contribute to ensuring macroeconomic stability in the agricultural products market operating within the agrarian sector of our country, at a time when food security is becoming a pressing global concern.

Keywords: food security, agricultural products market, domestic market, foreign market, agro-resource market, agro-service market, intellectual property market, macroeconomic balance.

KIRISH

Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi dolzarb masalaga aylanib borayotgan ayni paytda, nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini mavsumiy emas, balki doimiy yetkazib berish talab etilmoqda. Bunday sharoitda yil davomida sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini taklif qila olgan davlatlarga jahon bozorida o'zining munosib o'rnini egallamoqda. Dunyo agrar bozorida yuzaga kelayotgan vaziyatlar shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning eksporti o'sish sur'atlari tabiiy-iqlim afzalliklariga ega bo'lgan

mamlakatlarda kuzatilmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilayotgan xalqaro ekspert tadqiqotlari jahonda va uning ayrim mintaqalarida ushbu muammo bilan bog'liq murakkab vaziyat yuzaga kelayotganini ta'kidlashmoqda. Mutaxassislarining fikricha: "...hozirgi kunda jahon agrar va oziq-ovqat bozorlarida raqobat muhiti kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ayniqsa, ho'l va quruq mevalar, sabzavotlar, konservalangan mahsulotlar, qayta ishlangan mevasabzavot mahsulotlari, o'simlik yog'i, un va un mahsulotlari, choy, kofe, sitrus mevalar, sut va go'sht mahsulotlari bozorlarida shunday holatni kuzatish mumkin. Bunda u yoki bu tovarga bo'lgan talab va sotuv hajmiga uning tashqi ko'rinishi, rangi, hajmi, chiroyli qadoqlanishi, ishlab chiqaruvchi korxonaning obro'-e'tibori, sotuvchining xatti-harakati, tovarni taklif eta olish qobiliyati, reklama va boshqa omillar kuchli ta'sir ko'rsatadi" [1].

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, intensiv bog'lar tashkil etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ilmfan yutuqlarini ishlab chiqarishga keng tatbiq etish, olimlar va mutaxassislarining fikr-mulohazalari hamda to'plangan tajribalar asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Shu bois, "tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish" ustuvor vazifa etib belgilangan [2].

Hozirda agrar sohada qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorlarining faoliyatini kompleks ravishda, erkin bozor qonunlari doirasida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurati ushbu mavzuni tanlashga asos bo'lgan.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy tahlil, korrelyatsiya va regressiya kabi statistik hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy maqola natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorlarining iqtisodiy xavfsizligini oshirish hamda makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli strategiyalarni shakllantirishga o'z hissasini qo'shish imkonini beradi. Amaliy jihatdan esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini rivojlantirishni ta'minlash mezonlari va ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilganligi, ushbu bozorni rivojlantirishni ta'minlash jarayonida, shuningdek, tarmoq oliy ta'lim muassasalaridagi tegishli fan yo'nalishlari bo'yicha ta'lim jarayonida qisman foydalanish, hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini rivojlantirishga qaratilgan turli tadbirlarni ishlab chiqish uchun xizmat qiladi.

Agrar sohada bozor munosabatlarining rivojlanib borishi mamlakatimiz agrar

tarmogʻining jahon xoʻjaligiga integratsiyalashuv jarayoni kuchayib borishi bilan yuz bermoqda. Bu, eng avvalo, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari bozori doirasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish yoʻnalishidagi tadbirlar majmuini taqozo etadi. Ayni paytda esa agrar bozor doirasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari bozorlarining muhim xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish talab etiladi. Xususan, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari bozori doirasida quyidagi talablarga javob beradigan davlat agrar siyosati yoʻnalishlarini belgilab olish lozim. Sababi, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining barqarorligini taʼminlash, inflyatsiya darajasining oldini olish bilan bir qatorda, qishloq joylardagi bandlik masalasi hamda agrar sohadagi oʻzaro toʻlovlar balansida muvozanatga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, agrar bozor doirasidagi integratsiyalashuvning muhim shartlaridan biridir.

Ammo ayni paytda taʼkidlash lozimki, agrar mahsulotlar, resurslar va xizmatlar bilan bogʻliq tashqi savdo jarayoni, tashqi hamda ichki savdo va toʻlov balansi muammosini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday sharoitda, ayniqsa, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari bozorlariga nisbatan davlatning proteksionistik siyosatini qoʻllash zarurati ortib bormoqda. Tashqi va ichki agrar bozorlarning rivojlanish darajasida bir-biriga yaqin koʻrsatkichlarga erishishgina mamlakat ichkarisida agrar ishlab chiqarish barqarorligi va raqobatbardoshligini taʼminlash imkonini yaratadi. Agar tashqi bozorlarda agrar tarmoqning ishtiroki alohida xususiyatlarga — davlatning geografik joylashuvi, ishlab chiqarish hajmi, mahsulot sifati va marketing tizimidagi raqobatbardoshlik kabi omillarga bogʻliq ekanligini hisobga olsak, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar rivojlanishi uchun maqbul iqtisodiy muhitning kengayib borishi talab etiladi.

Iqtisodchi olimlar Davis va John oʻzlarining ilmiy ishlanmalarida “...marketingni ular sanʼat deb biladi, biroq globallashtirish sharoitida marketingning murakkab usullarini ishlab chiqish, mavjud resurslardan samarali foydalanishda marketingning kelajakdagi 110 dan ortiq asosiy oʻlchovlari mavjudligini koʻrsatadi. Jumladan, brend, mijoz, savdo, reklama, narx va boshqa oʻlchovlarni tahlil qilish qishloq xoʻjaligi mahsulotlari bozorining rivojlanishiga xizmat qiladi”, — deb taʼkidlashgan [3]. Toʻgʻri, hozirgi kunda agrar bozorning mutanosib rivojlanishini taʼminlashda xalqaro marketing tizimisiz tasavvur etish qiyin.

Xalqaro bozorlar bilan respublika milliy bozori integratsiyalashuvi, avvalo, agrosurslar bozorini rivojlantirish va qishloq xoʻjaligi mahsulotlari eksportini kengaytirishni talab etadi. Shu bilan birga, muhim masalalardan biri — qishloq xoʻjaligini texnik jihatdan qurollantirish, agrotexnologiyalarni takomillashtirish hamda agrar tarmoqdagi fundamental va amaliy tadqiqotlar koʻlamini kengaytirish zaruratidir.

Iqtisodchi olimlardan Andree, Peter Bosia, Michael J., Ayres, Jeffrey McKelvey Massicotte va Marie-Josée oʻzlarining ilmiy tadqiqotlari natijalaridan kelib chiqib, “...soʻnggi yillarda jahonda oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari bozorlarini korporativ nazorat qilish, mamlakatlarning oziq-ovqat mustaqilligini faollashtirish va aholining qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojini qondirish agrar bozorning holati va rivojlanish darajasiga bevosita bogʻliqdir”, — deb taʼkidlashgan [4]. Sababi, aholining qishloq xoʻjaligi mahsulotlari

bilan ta'minlanishida agrar bozor muhim o'rin tutadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish uchun chet el korxonalarining agrar bozorga kirib kelishiga keng sharoit yaratish, resurs ishlab chiqaruvchi korxonalarining dilerlik markazlarini hududlarda tashkil etish hamda lizing kompaniyalari faoliyatini kengaytirish zarur. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti ko'p jihatdan tovar-pul munosabatlariga asoslangan bo'lib, ularga xos iqtisodiy qonunlar — ya'ni erkin bozordagi talab, taklif va baho mexanizmlari asosida boshqariladigan tizim hisoblanadi. Bozor o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan murakkab tizimdir va u turli turlarga bo'linadi. Masalan, ayirboshlash miqyosi jihatidan bozorlar mahalliy, hududiy va jahon miqyosida tasniflanadi.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar I. Dobrnin va S. Tarasevichlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini quyidagicha ta'riflaydi: "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorlari — bu qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari hamda qishloq xo'jaligi bilan bog'liq sanoat tarmoqlari o'rtasidagi ayirboshlash jarayonlari majmuini o'z ichiga oluvchi iqtisodiy atamadir", — deb qayd etadi [5]. Albatta, qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari o'rtasidagi farq juda kichik bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi va o'zaro uzviy aloqada bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini ikki turga — oziq-ovqat mahsulotlari bozori va nooziq-ovqat mahsulotlari bozorlariga bo'lish mumkin. Boshqa tomondan esa, uni paxta bozori, g'alla bozori, go'sht va go'sht mahsulotlari bozori, sut va sut mahsulotlari bozori hamda boshqa shu kabi bozorlarga ajratish mumkin. Bundan tashqari, ushbu bozorlarni qisqa ixtisoslashgan turlarga, masalan, meva-sabzavot bozorini o'z navbatida meva bozori, yong'oqlar bozori, poliz mahsulotlari bozori va boshqa kichik yo'nalishlarga bo'lish ham mumkin.


– Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori insonning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi. Shu sababli, oziq-ovqat mahsulotlariga doimiy va barqaror talab mavjud bo'ladi.

– Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida oziq-ovqat mahsulotlariga talab shakllanishida baho noelastikligi holati kuzatiladi. Bunda insonlarning daromad miqdori oshishi talabning keskin o'sishiga olib kelmaydi, chunki fiziologik oziqlanish me'yorlari bu jarayonni cheklaydi.

– Bozorda oziq-ovqat mahsulotlari (asosan o'simlikchilik mahsulotlari) taklifi hajmining o'zgarishi yil davomida ob-havo sharoitiga bog'liq bo'ladi. Mavsumiylik xususiyati tufayli mahsulotlarning bozor bahosi yil davomida o'zgarib turadi (qish oylarida qimmatlashadi) va qishloq xo'jaligi mahsulotlari taklifi hajmini talabga qarab maqbullashtirishni qiyinlashtiradi.

– Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori bir xil mahsulotni ishlab chiqaruvchi subyektlar sonining ko'pligi va bozordagi iqtisodiy raqobatning yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini quyidagi tarkibda tavsiflash mumkin (1-rasm):



1-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorlarining mahsulot turlari jihatidan guruhlari [5]

– Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining tez buzilish xususiyatiga ega ekanligi ularni saqlash va tashish jarayonlarida katta e'tibor talab etadi. Shu bilan birga, mahsulotlarni saqlash muddatining chegaralanganligi va turlicha tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini shakllantirishda quyidagi omillarni inobatga olish zarur:

– mavjud talab va taklif balansi, ishlov beriladigan qishloq xo'jaligi ekin maydonlariga bog'liq holda turli resurslarga bo'lgan ehtiyoj;

– hududlar bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibining tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda shakllanganligi;

- qishloq xo‘jaligi ekinlarining mahsulotlarga bo‘lgan bozor talabidan kelib chiqib joylashtirilishi;
 - qishloq xo‘jaligi ekinlari, mevali daraxtlar hosildorligi hamda chorva mollari mahsuldorligi darajasi;
 - qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining hududlar kesimida ixtisoslashuv darajasi, fermer xo‘jaliklari salohiyatidan samarali foydalanishni ko‘zda tutuvchi ko‘p tarmoqli faoliyatning to‘g‘ri tashkil etilganligi;
 - mulkchilik va xo‘jalik yuritish shakllari va ularning iqtisodiy faoliyatga ta‘siri.
- Bizningcha, bozor munosabatlarini rivojlantirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida bosqichma-bosqich xususiy sektor salmog‘ining ortib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu bozorda noan’anaviy xizmat turlarining rivojlanishi ham zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Киселева Е.Н., Власова О.В., Коннова Е.Б. Рынок продовольственных товаров: учебное пособие.
[http://www.plam.ru/ucebnik/rynok_prodovalstvennyh_tovarov/p2.php](http://www.plam.ru/ucebник/rynok_prodovalstvennyh_tovarov/p2.php)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-феврал ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” Фармони, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й.
3. Davis., Jon (Measuring Marketing) Ed.: Third edition. Berlin : De|G Press. AGRIBUSINESS 2017y. www.search.ebscohost.com.
4. Andree., Peter Bosia., Michael J., Ayres., Jeffrey McKelvey Massicotte., Marie-Josée. Globalization and Food Sovereignty : Global and Local Change in the New Politics of Food. Toronto, Canada : University of Toronto Press, Scholarly Publishing Division. Business and economics 2014 y. www.search.ebscohost.com.
5. Добрнын И., Тарасевич С. Экономическая теория. Питер-2009. 58-69 стр.
6. Муаллифнинг тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**